



WOMEN'S EDUCATION IN AFGHANISTAN IN THE 20TH CENTURY: REFORMS AND PROBLEMS

Mokhidil M. Nizamova

Master's student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: nizamovamohidil@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: "Convention Protection", "Masturat", "Anis", US Armed Forces, "Irshodi nesvon", "Oynai Irfon", April Revolution, "Malalay".

Received: 11.05.23

Accepted: 13.05.23

Published: 15.05.23

Abstract: This article focuses on women's participation in Afghanistan and as one of the most important political reforms of the 1920s, 1950s and 1960s. The article talks about the extent to which the Afghan government of this period understands the importance of women's reforms, which will create conditions for improving their situation, getting an education and getting a decent profession. In addition, the reasons for the reform crisis are based on historical sources.

XX ASRDA AFG'ONISTONDA AYOLLAR TA'LIMI: ISLOHOTLAR VA MUAMMOLAR

Mohidil M. Nizamova

Magistratura talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: nizamovamohidil@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: "Anjumani himoyati nesvon", "Masturat", "Anis", AQSh qurolli kuchlari, "Irshodi nesvon", "Oynai irfon", Aprel inqilobi, "Malalay".

Annotatsiya: Ushbu maqolada Afg'onistondagi ayollar ishtiroki va 1920-1950 va 1960-yillarda amalga oshirilgan eng muhim siyosiy islohotlardan biri sifatida yoritilgan. Maqolada ushbu davrdagi Afg'oniston hukumati ayollarga oid islohotlarning ahamiyatini qay darajada anglab yetayotgani, bu ularning ahvolini yaxshilash, ta'lrim olishi va munosib kasb-hunar egallashi uchun sharoit yaratishi haqida so'z boradi. Bundan tashqari,

ЖЕНСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В АФГАНИСТАНЕ В XX ВЕКЕ: РЕФОРМЫ И ПРОБЛЕМЫ

Мохидил М. Низамова

студент магистратуры

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

E-mail: nizamovamohidil@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «Конвенция Охрана», «Мастурат», «Анис», ВС США, «Иршоди несвон», «Ойнаи Ирфон», «Апрельская революция», «Малалай».

Аннотация: Эта статья посвящена участию женщин в Афганистане и одной из самых важных политических реформ 1920-х, 1950-х и 1960-х годов. В статье говорится о том, насколько афганское правительство этого периода понимает важность женских реформ, которые создадут условия для улучшения их положения, получения образования и получения достойной профессии. Кроме того, причины кризиса реформ основаны на исторических источниках.

KIRISH

Bugun Afg'oniston hududini "Tolibon" nazorat qilib kelmoqda. Ana shunday murakkab davrda eng ko'p jabr ko'rgan qismi bu ayollardir, qariyalar va yosh bolalar bo'lmoqda. Afg'onistondagi hozirgi davrda bu dolzarb muammo mamlakatdagi ayollar masalasini kun tartibiga olib chiqmoqda. Ko'plab jurnalistlar, siyosatchilar, ayollar huquqlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar Afg'onistondagi ayollar bilan bog'liq holatlarni o'rganib, turli ilmiy maqolalar, tezislar tayyorlamoqda. Ular orasida Mishelin Demon, Soniya Jadidi, Foxira Musavi, Nur jahon Akbar, Sesil Dushelarni sanab o'tish mumkin. Shuningdek, XX asrda shveytsariyalik Ella Mayyart va Annamari Shvarzenbaxlar Afg'onistonga sahoyatlari davomida Afg'on ayollar haqida ko'plab qiziqarli ma'lumotlarni qoldirganlar. Alovida qayd etish kerakki, aynan XX asrda Afg'onistonda ayollar ta'limi va huquqlari sezilarli darajada ta'minlangan edi.

ASOSIY QISM

Aslida, Afg'onistonda ayollar masalasi faqat bugun paydo bo'lib qolgan yangi jarayon emas. XX asr Afg'oniston tarixida 1978-yilgi Aprel inqilobigacha bo'lgan davrda islohotlar o'tkazilishi bilan bog'liq eng muhim uch davrni sanab o'tish mumkin. Ular Amir Omonullaxon va qirol Zohirshohlarning hukmronlik davrini o'z ichiga oladi. Mazkur hukmdorlarning uchalasi ham ayollar bilan bog'liq bir qator islohotlarga qo'l urgan.

Omonullaxon islohotlari. Afg'oniston mustaqilligining me'mori, islohotchi amir Omonullaxon hukmronligining ilk yillaridanoq ayollarning ta'lim olishi masalasida jiddiy qadamlarni tashladi. Bu borada unga ayoli Surayyo Tarziy ko'makchi bo'ldi. Surayyo Tarziy Afg'onistonda ma'rifatparvarlik harakatining asoschisi bo'lgan Mahmud Tarziyning qizi edi. Aynan uning tashabbusi bilan 1921-yilda "Ismat" deb nomlangan ayollar litseyi tashkil etildi. Shuningdek, Omonullaxonning ta'lim siyosatida afg'on ayollarining dunyoviy ta'lim olish huquqi mustahkam o'rnatildi. Xususan, 1921-yilda afg'on qizlari ta'lim olishi uchun Omonullaxonning xotini, qirolicha Surayyo homiyligida dastlabki boshlang'ich mакtab – "Masturot" mакtabi tashkil etildi. Qirolicha Surayyo ayollarning jamiyatdagi nufuzini oshirish, ularni ta'lim olish huquqi, ishsizlik va boshqa huquqlarini himoya qilgan. 1920-yildan 1927-yilgacha Kobulda jami bo'lib 700 ta talaba qizlarni o'z ichiga olgan 2 ta boshlang'ich mакtab va 1 ta o'rta mакtabga asos solindi. 1928-yilda Masturot o'rta mакtabining 15 nafar ayol bitiruvchilari va mashhur Kobuliy mакtabining bitiruvchi qizlari oliy ta'lim olishlari uchun Turkiyaga jo'natildi.

Keyinchalik ushbu litsey "Malalay" deb qayta nomlandi. Mazkur litseyning xarajatlari Surayyo xonim va uning onasi tomonidan qoplab borilgan edi. 1928-yilga kelib, o'quvchi qizlarning soni 800 nafarni tashkil etdi. Shu yildan boshlab qizlar "Omoniya" litseyiga ham qabul qilina boshlandi. Bir paytning o'zida bir nechta afg'on qizlari Turkiya, Fransiya va Shveysariya kabi xorijiy mamlakatlarda ham o'qishni davom ettirishga erishishdi. Shu davrda Omonullaxon yana beshta shunday maktablar tashkil qilib, qizlar uchun ham ta'limni majburiy qilishni reja qilgan edi. Ammo, 1928-yilgi voqoealar, ya'ni uning taxtdan ag'darilishiga sabab bo'lgan norozilik namoyishlari va qo'zg'alol natijasida uning rejalarini amalga oshmay qoldi.

Xotin-qizlar ta'limi masalasi uning ayollar borasidagi islohotlarining bir qismi edi xolos. 1923-yilda Omonullaxon ayollar huquqlari masalasida yana bir muhim hujjat, "Oila Kodeksi" ni qabul qilinishga erishdi. Mazkur kodeks o'z navbatida nikoh masalalarini ham tartibga soldi. Xususan, voyaga yetmaganlar va o'zaro qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar taqiqlandi. Shuningdek, to'ylarga ishlataladigan xarajatlarga ham qat'iy cheklolvar joriy qilindi. Bundan tashqari ayollarga agar islom buyurgan haqlarga rioya qilmasalar, mahramlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi ham berildi va qizlar o'z turmush o'rtoqlarini o'zlarini tanlash huquqiga ham ega bo'ldilar.

Surayyo Tarziyning yana bir qadami ayollarning dunyoqarashini o'zgartiradigan, ularni dunyo bilan tanishtiradigan ayollar jurnalini tashkil qilish bo'ldi. 1924-yilda Afg'onistonda ilk ayollar jurnali – "Irshodi nesvon" jurnali tashkil etildi. Mazkur jurnal haftada bir marta chiqariladigan bo'ldi. Jurnalda ayollar huquqlari masalalari va ularning jamiyatdagi o'rni haqida mulohazalar yozilgan maqolalar e'lon qilinib borildi. Yana bir jurnal "Oynai irfon"da ham islomda ayollarning huquqlari va ularning Afg'oniston mustaqilligining qo'lga kiritilishida qo'shgan hissasi haqida maqola e'lon qilindi. Umuman olganda, o'sha davrdagi jurnallarda butun dunyodagi

va islom olamidagi ayollarning umumiy ahvoli haqida bir qator maqolalar e'lon qilinib borilgan edi.

XX asrning 20-yillarida Omonullaxonning singillaridan biri bo'lgan Kubrojon tashabbusi bilan ayollarni himoya qilish tashkiloti – “Anjumanim himoyati nesvon” tuzildi va shu davrda yuz bergen eng muhim voqealardan biri bu ayollarning chodri – paranjidan voz kechishi bo'ldi. Amirning ayoli Surayyo Tarziy birinchilardan bo'lib paranjisiz jamoat oldida ko'rinish berdi. Bu voqealarga 1928-yilda yuz berdi va shu yilning oktyabr oyiga kelib yuz nafarga yaqin ayol paranjidan voz kechdi. Omonullaxon esa bu voqealarga izoh berar ekan, ularning bu masalada mutlaqo erkin ekaniga urg'u bergen.

1927-yili “Anis” gazetasi o‘z sahifalarida “Oila baxti” ruknini e’lon qildi, hamda u yerda oila masalalari, ayollar huquqlari bilan bog‘liq voqeliklar yoritib borildi. Shuningdek, shu yili afg‘on ayollari ilk bor aeroplanda Kobul osmoni uzra parvoz qilishdi.

Omonullaxonning barcha islohotlari kabi bu boradagi islohotlari ham 1929-yilda uning taxtdan ag‘darilishi va Bachai Saqo (ma’nosi suv tashuvchining o‘g‘li) hukmronligi yillarda bekor qilindi. Bu vaqtida Afg‘oniston yaqindagina fuqarolar urushidan chiqib, siyosiy inqirozlar davrini boshdan kechirayotgan davr edi. Ma'lumki, 1928-1929-yillarda ruhoniylar yordamiga tayangan Bachai Sakao qo‘zg‘olon ko‘tarib hokimiyatni egallab olgan edi. U Omonullaxonni yosh afg‘onlarni dindan qaytarishda va g‘arb turmush tarzini yoyishda ayblagan edi. Nodirshoh Bachai Saqo bilan kurashda g‘alaba qozonib, 1929-yilda taxtga o‘tirdi. Nodirshoh o‘tkazgan islohotlar Omonullaxon islohotlaridan ko‘ra mo‘tadil xarakterga ega edi. Musulmon ruhoniylarining Bachai Saqo tomonidan qayta tiklangan va kengaytirilgan huquq va imtiyozlari saqlab qolindi. Afg‘onistonning fuqarolik va jinoyat kodeksi shari‘at me’yorlariga muvofiq holga keltirildi. Shari‘at sudlariga avtonomiya (mustaqil idora etish huquqi) berildi. Ayollar chodra o‘rashi lozim edi, qizlar maktablari esa yopildi. Hukumat ko‘pxotinlilikni va an‘anaviy afg‘on-musulmon jamiyatining Yosh afg‘onlar tomonidan o‘zgartirilgan boshqa o‘ziga xos xususiyatlarini qayta tikladi.

Ayollar masalalari esa, faqatgina 1940-1950-yillarga kelib yana qayta kun tartibiga chiqi boshladi. Yana bir narsani qayd etib joizki, mazkur islohotlar asosan o‘rtaligida yuqori qatlama vakillarinigina qamrab olgan edi. Asosan, poytaxt va yirik shaharlarda amalga oshgan islohotlar chekka qishloq hududlariga yetib bormadi. 1960-yillarda yuz bergen voqealar davomida ayollar masalasi ham qayta ko‘rib chiqildi. Xususan, mamlakatning 1963-yil qabul qilingan Konstitutsiyasiga ko‘ra Afg‘oniston tarixida ilk marta ayollarga saylovda qatnashish huquqi berildi. Asosiy qonunning 11-12-moddalarida belgilab qo‘yildi. 1965-yilgi parlament saylovlarida ayollar ham qatnashib, deputatlikka saylandi. Albatta, bunda ularning soni unchalik ko‘p bo‘lmagan.

Muhammad Zohirshoh islohotlari. Aynan, Muhammad Zohirshoh hukmronligi yillarida ayollarning universitetlarda o‘qishi, g‘arbona kiyimlarini kiyishi, chodrasiz yurishlari urchga aylanib bordi. Ammo, keyinchalik, kommunistik kayfiyatdagi kuchlarning ko‘payib borishi va unga qarshi paydo bo‘lgan muxolifat harakatlari natijasida ayollar borasidagi islohotlarning amalga oshishi qiyinlashib bordi. Sovet-afg‘on urushi boshlanganidan keyin esa, ayollar ham ikki oqimga bo‘linib ketdi. Jumladan, hayotini islom an’analari bilan bog‘lagan ayollar Sovet armiyasiga qarshi kurashayotgan mujohidlarga yordam bergen bo‘lsa, so‘l kayfiyatga ega hamda kommunistik g‘oyalar ta’siriga tushib qolgan ayollar faollik bilan kommunistlarni qo‘llab-quvvatladilar.

Shuningdek, Zohirshohning hukmronligi davrida Omonullaxonning ko‘plab tashabbuslari bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Uning hukumati davrida qizlar maktablarini qayta ochdi, yangi universitetni moliyalashtirdi va 1950-yillarda demokratik asosni joriy etgan va afghan ayollariga saylov huquqini beruvchi yangi konstitutsiyani joriy qildi. Shaharlarda, ayollar kollejlarda, uylaridan tashqarida ish olib borishgan, biznes yuritgan va hatto siyosatda ham faoliyat yuritishgan. 1957-yilda birinchi qizlar oliy o‘quv yurti Hirotda tashkil etildi. 1964-yilda ayollarga uchinchi konstitutsiyaga muvofiq saylash va saylash huquqi berildi. Yanvar oyining, 1966-yilda Kubra Nurzay vazirlar mahkamasining birinchi ayol vaziri bo‘lgan. Shu bilan birga, uchta ayol - Doktor Anahita Ratibzod, Ruqiyya Habib Abu Bakr va Masuma Ismatiy Vardak - parlament a’zosi bo‘lishgan va Humayra Malikyor, Senatga Saljuqiy Gardizi va Azizah Gardizi saylangan. Biroq, ayollarni ish bilan ta’minalash faqat bir qancha sohalarda rag‘batlantirilgan edi. Kommunistik hukumat davrida qizlar uchun ta’lim majburiy bo‘lgan va qizlarning turushga chiqishi uchun minimal yoshni joriy qiladigan keyingi ijtimoiy islohotlar amalga oshirilgan. Bu islohotlar yana konservativ isyonlarni tashkil etgan edi va turli guruuhlar Pokiston va AQSh ko‘magida umummiliy qarshilik ko‘rsatishgan. Bu guruuhlar dastlab hukumatga qarshi kurashib, keyinroq o‘zaro kurash olib borishgan. Fuqarolar urushi davrida qonun ustuvorligi kam bo‘lgan: ko‘pgina erkaklarning vafoti, beva ayollar tilanchilikka aylanganligi, umidsiz ayollarning o‘z joniga qasd qilishlari tez-tez uchraydigan holatga aylangan edi.

XULOSA

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, mamlakatda boshqa sohalardagi islohotlar singari ayollar borasidagi islohotlar ham radikal tusga ega edi va aholining qarashlari va qadriyatlarini inobatga olingan edi. Aynan, shu sababli Afg‘onistonda XX asrda amalga oshirilgan islohotlarning ko‘pchiligi bugungi kunda muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Omonullaxon, Muhammad Zohirshohlar davlat to‘ntarishi oqibatida ag‘darib tashlangandan so‘ng, ayollarning huquqlari e’tiborsiz qoldirildi. Shuningdek, XX asrda Afg‘oniston hukumati ayollarga oid amalga oshirilgan keng

ko‘lamli islohotlarning barchasi sezilarli darajada mamlakat hayotida ayollar uchun yangi o‘zgarishlarni boshlab bergen edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Коргун В. Г. История Афганистана. XX век – М.: Крафт, 2004.- С. 528.
2. Mannonov A., Bo‘ronov S., Omonulloxon- mustaqil Afg‘oniston asoschisi. - Sharq mash’ali, 2018. – Б. 62.
3. Adam Bernstein, The Washington Post. Former Afghan King Mohammad Zahir Shah, Washington Post Staff Writer. Tuesday, July 24, 2007.
4. Sara STIENERT BORELLA, La voix des femmes en Afghanistan: Les récits de voyage d'Ella.
5. Fakhreh Moussavi, La guerre, la résistance et la femme afghane. 2016.
6. Sonia Jedidi, Levons le voile sur les femmes en Afghanistan // <https://www.cairn.info/revueherodote-2010-1-page-121>
7. Micheline Centlivres-Dumont, Hommes combattants, femmes discrètes: aspects des résistances subalternes dans le conflit et l'exil afghans, Graduate Institute Publication, p. 169-182. 2001.